



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 6 (8)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

6

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Karabayev R.Z. Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va O‘zbekistonda rivojlanish yo‘nalishlari.....	8
Ubaydullayeva N.A. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes korxonalarining rivojlanish strategiyalari: nazariy yondashuvlar.....	11
Xatamov A.A. Raqamli transformatsiya asosida ixtisoslashtirilgan savdo majmualarida moliyaviy resurslarni boshqarishni takomillashtirish.....	15
Yokubjonova X.Yo. Co-marketing strategiyasining ekoturizmni brendlashiga integratsiyasi: metodologik yondashuv va amaliy natijalar.....	19
Yusupova M.B., Jamoliddinova (Usmonova) S.S. Ustama xarajatlarni tasniflash va uning mahsulot tannarxini shakllantirishdagi ahamiyati.....	24
Abdug‘ofurova O.M., Yusupova M.B. Ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni kalkulyatsiya qilish va uni takomillashtirish yo‘llari.....	27
Xojiboyev M.Sh. Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston nodavlat oliy ta’lim muassasalari boshqaruv hisobi tizimiga moslashtirish: nazariy asoslar va amaliy istiqbollari.....	31
Исраилова Д.К. Глобализация в условиях демографического кризиса: социально-экономические риски.....	38
Qurbonova X.I. Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash va inqirozga qarshi siyosati.....	43
Asqarov A.H. Oliy o‘quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni aniqlash me’zonlari (noiqtisodiy yo‘nalishi talabalar misolida).....	47
Yunusova S.A., Turg‘unboyev A.A. Eko-mehmonxona tushunchasi, turlari va asosiy xususiyatlari.....	51
Barnayev Z.Sh. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari raqobatbardoshligining mazmun-mohiyati va xususiyatlari.....	55
Bobokulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining hududiy iqtisodiy integratsiyaga ta’siri.....	59
Рахимжонов Б.Б., Рахимжонов Б.Б. Инновационные процессы как фактор развития промышленных предприятий.....	63
Matmusayev M.O. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari.....	67
Raxmatjonova G.E. Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy vositalari buxgalteriya hisobini xalqaro andozalar talablari bo‘yicha takomillashtirish.....	72
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligi faoliyatida raqamli integratsiya darajasini baholash.....	76
Xaitova M.K. Raqamli platformalar orqali biznes modellarini yangilash va kompaniyalar strategik imkoniyatlarini kengaytirish.....	81
Yo‘ldashev M., Sotvoldiyev U. Davlat byudjetini taqchilligi va uni kamaytirish mexanizmlari.....	85
Maribjonov B.I., Arabboyev J.S. Tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining 4-guruh xarajatlarining tahlili.....	88
Ro‘ziyev Sh.Sh. Hududiy iqtisodiy rivojlanishda mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullari.....	92
Nematov G‘.G‘., Sotvoldiyev U.K. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy asoslari va istiqbollari: deкупpling indeksi tahlili.....	95
Karimov D.M., Mustafayeva H. Xorij tajribasi asosida O‘zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish....	99
Ermatova S.I. Sanoat korxonalarida majburiyatlar tarkibi va moliyaviy barqarorlikning empirik tahlili (Andijon viloyati to‘qimachilik korxonalari misolida).....	104
Ermatov M.S. Sun’iy intellekt va mehnat bozorida raqamli inqilob: tahdidmi yoki kelajak imkoniyatimi?....	107
Azizova H.A. Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyatini takomillashtirish yo‘llari.....	111
Юсупов А.С., Джангабаева Г.П. Международный рынок акций: содержание, виды и особенности..	114
Xusanova Z.R. Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning xususiyatlari.....	119
Abdulazizov A.A. Energetika tarmog‘i korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....	122
Norov A.E., Fazliddinov Sh.Sh., Erkinov X.X. Liderlik va motivatsiya o‘rtasidagi munosabatga ta’sir etuvchi omillar.....	126
Атаханова Ш.С., Мирхамидова Д.Н. Цифровая трансформация как инструмент достижения ESG-целей в нефтегазовой сфере Республики Узбекистан.....	131
Toxirov J.R. Mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli marketing asosida savdo xizmatlarini modernizatsiya qilish.	136

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

Sulaymonova F., Ro‘zimov B. Online ta’lim xizmatlari bozorining kengayishi natijasida an’anaviy ta’lim sektorida yuz berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar.....	140
Zayavitdinova N.M. Hududda xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	143
Odilova M.A. Kimyo sanoatidagi korxonalar faoliyatida resurslardan samarali foydalanish.....	147
Axmedova D.N. Mintaqaviy raqamli tayyorlik indeksining hududiy iqtisodiy o‘lishga ta’siri.....	151
Sapayeva N.K. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida yashil transformatsiya va B2B raqamli marketing asosida barqaror rivojlanish modeli.....	155
Allayarov S. Startup financing mechanisms: a comparative analysis of angel investment, venture capital, bank lending, and state grants.....	158
Махмудов О.Х. Moliya tizimining boshqa iqtisodiy tizimlar bilan aloqadorligi.....	162
Ibragimova M.M. “Yashil iqtisodiyot” va “Yashil tadbirkorlik” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni va evolyusion transformatsiyasi.....	167
Olimjonov A. Korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish.....	171
Rakhimboeva B.D. Analysis of the economic situation of the development of export activities of small businesses in Uzbekistan.....	174
Raxmatova F.Y. To‘qimachilik korxonalarida aylanma iqtisodiyot modelini joriy etishning iqtisodiy mexanizmlari.....	178
Ergasheva A.F. Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash va bozorda pozitsiyalashning strategik yondashuvlari.....	181
Navruzova G.U. Theoretical models and institutional mechanisms, forms and structures of cooperation between education and manufacture.....	184
Djumayeva S.K. Yashil investitsiya muhitini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ta’siri (O‘zbekiston hududlari misolida).....	188
Pardayev TN., Muqimov A.R. Boymirzayev K.M. Jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlardan bojxona to‘lovlarini undirishni takomillashtirish.....	193
Ибодуллоева З.С. Экономические стимулы внедрения водосберегающих технологий в аграрном секторе Узбекистана.....	199
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini yaxshilashda innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalar.....	203
Raxmatova S.S. Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	207
Umarova M.M. Foreign brand spillovers and export performance of smes in emerging economies: a panel data analysis.....	212
Karimova F.A. Ekoturizmni barqaror rivojlantirishning xorijiy tajribasi va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.....	217
Raxmanov B.I. Investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish.....	221
Ashurova G.N. Charm-poyabzal sanoati korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	225
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	228
Эгамназарова Г.Ш. Рақамли тенгсизлик: давлатлар ва тармоқлар ўртасидаги технологик узилишларни камайтириш йўллари.....	232
Mamanazarov M.A. Iqtisodiy o‘lishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning xorij tajribasi.....	236
Химматов А.Х. Йўл корхоналарини хусусийлаштиришнинг афзалликлари ва оқибатлари.....	241
Kambaraliyeva I.S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining transformatsiyasi va raqamli ko‘nikmalarning ahamiyati.....	244
Muxiddinov T.Sh. Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	248
Sayxdodjayeva N.I. Ijtimoiy va ekologik audit: barqaror rivojlanishni ta’minlashda zamonaviy nazorat mexanizmi.....	253
Fayzullayev J.N. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	257
Tursunova N.X. «Xayot sug‘urtasining iqtisodiy mohiyati va uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta’minlashdagi roli».....	261
Abdishukurova G.M., Bozorboyev A.R. Sug‘urta kompaniyasi balansini “Risk tetraedri” modeli asosida baholash.....	266
Abdurasulova M.O. Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi asoschilari.....	270

Vaxidov A. Buxgalteriya hisobining tarkibiy tuzilishi - moliyaviy va boshqaruv hisobi.....	273
Turg‘unova T., Muftaydinov Q. Iqtisodiy zonalarda ekologik tadbirkorlikni investitsion va innovatsion qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribalari.....	277
Kurbanov F.U. Raqamli iqtisodiyotning moliyaviy xizmatlar bozoriga ta’siri.....	283
Umarov T.S. Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini statistik baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish.....	287
Rahimova N.A. Kichik biznes subyektlarida inson resurslarini boshqarish tizimidagi muammolari va ularni bartaraf etishda zamonaviy yondashuvlar.....	291
Yangiboyev U.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy menejment tizimini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari.....	295
Махкамова Н.С. Роль зеленых облигации в финансировании проектов устойчивого развития.....	299
To‘xtarova F.Y. Analysis of tourism insurance practices and their economic efficiency.....	304
Anvarov Sh.D. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsion muhitni rivojlantirishning institutsional va infratuzilmaviy omillari.....	308
Xalmirzayev O.A. Ko‘p obyektli savdolarida Vickrey-Clark-Groves mexanizmining samaradorligi tahlili....	313
Zaidov I.I. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida raqobat munosabatlarini boshqarish mexanizmlari.....	318
Rahimova N.A. Inson kapitalini boshqarishning tashkilot raqobatbardoshligiga ta’siri.....	321
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim kreditlarining iqtisodiy ahamiyati....	324
Bardiyev S.U. Mintaqada raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini baholash: Xorazm viloyati misolida.....	328
Qulmatova S.S. Mahalla tizimida oziq-ovqat ta’minoti zanjirini IoT va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida intellektual boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....	332
Aminov S.S. Mintaqada qurilish sohasidagi innovatsion rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar.....	336
Дадабоева М.М. Кичик бизнеснинг иқтисодий тармоқлари бўйича ривожланиш тенденциялари.....	340
Numonjonova N.A. Kichik biznesni rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish	344
Абдулазизов А.А. Гидроэнергетика саноати ва унда ресурс тежаш жараёнларининг хорижий тажрибалари.....	348
Muradov O.U. Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	352
Saidova M.J. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash yo‘nalishlari.....	356
Umirova G.Sh. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida rentabellik ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash metodikasini takomillashtirish.....	360
Narmanov U.A., Nazarov J.B., Tursunaxmadov X.Sh. Moliyaviy risklarning iqtisodiy ahamiyati va uni boshqarishning zarurligi: risk tushunchasi va uning turlari.....	365
Nosirov S.N. Barqaror moliyalashtirish global bozorlari: zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish muammolari.....	369
Farmanov J.Z., Sanetullaev A.E. Modeling of economic basis and forecast indicators of innovation transformation processes in agricultural entrepreneurship.....	373
Mirzataev S.M. Integration of digital and smart technologies in increasing the ecological resilience of the agricultural system.....	376
Kidirniyazov A.Sh. Development of artificial intelligence-based service monitoring systems for construction quality control.....	379
Абдуллаева Ш.Э. Халқаро индекслар асосида ижтимоий ҳимоя тизимини молиялаштириш.....	382
Mirjalolova M.M. Sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligini oshirishdagi o‘rni.....	389
Baytanov O‘.M. Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning tarmoq xususiyatlari.....	394
Умаров А.Т. Особенности развития социальной сферы в Узбекистане.....	400

**SANOAT KORXONALARIDA MAJBURIYATLAR TARKIBI VA MOLIYAVIY
BARQARORLIKNING EMPIRIK TAHLILI (ANDIJON VILOYATI TO‘QIMACHILIK
KORXONALARI MISOLIDA)**

**ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СТРУКТУРЫ ОБЯЗАТЕЛЬСТВ И ФИНАНСОВОЙ
УСТОЙЧИВОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ (НА ПРИМЕРЕ
ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ)**

**EMPIRICAL ANALYSIS OF LIABILITY STRUCTURE AND FINANCIAL STABILITY IN
INDUSTRIAL ENTERPRISES (EVIDENCE FROM TEXTILE ENTERPRISES OF
ANDIJAN REGION)**

Ermatova Sahodatxon Ismoilovna

Qo‘qon universiteti Andijon filiali “Iqtisodiyot va moliya” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada Andijon viloyatidagi to‘qimachilik korxonalarining majburiyatlar tarkibi va moliyaviy barqarorligi empirik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda joriy va uzoq muddatli majburiyatlarning korxona likvidligi, to‘lov qobiliyati hamda kapital tuzilmasiga ta’siri o‘rganilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ayrim korxonalarda yuqori kreditorlik qarzlari va manfiy kapital holati moliyaviy risklarni keskin oshirmoqda.

Kalit so‘zlar: majburiyatlar, moliyaviy barqarorlik, likvidlik, kreditorlik qarzi, kapital tuzilmasi, to‘qimachilik sanoati, BHMS, IFRS.

В данной статье эмпирически анализируется структура обязательств и финансовая устойчивость текстильных предприятий Андижанской области. Исследуется влияние краткосрочных и долгосрочных обязательств на ликвидность, платежеспособность и структуру капитала предприятий. Результаты показывают рост финансовых рисков из-за высокой кредиторской задолженности и отрицательного капитала.

Ключевые слова: обязательства, финансовая устойчивость, ликвидность, кредиторская задолженность, структура капитала, текстильная промышленность.

This article empirically analyzes the liability structure and financial stability of textile enterprises in the Andijan region. The study examines the impact of current and long-term liabilities on liquidity, solvency, and capital structure. The results indicate increased financial risks due to high payables and negative equity.

Keywords: liabilities, financial stability, liquidity, accounts payable, capital structure, textile industry.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, ularning investitsion jozibadorligini oshirish hamda xalqaro kapital bozorlariga integratsiyalashuvini kuchaytirishga qaratilgan. Bu jarayonda korxonalarning moliyaviy holatini to‘g‘ri va shaffof aks ettirish, xususan, majburiyatlar hisobi tizimini takomillashtirish muhim strategik yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, to‘qimachilik sanoati mamlakat eksport salohiyatining asosiy drayverlaridan biri bo‘lib, unda ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi va moliyaviy resurslar bilan ta’minlanganlik darajasi bevosita majburiyatlar tuzilmasiga bog‘liqdir [1].

Sanoat korxonalarida joriy va uzoq muddatli majburiyatlarning oqilona nisbatini ta’minlash moliyaviy barqarorlikning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Joriy majburiyatlar korxonaning qisqa muddatli to‘lov qobiliyatini belgilasa, uzoq muddatli majburiyatlar esa uning strategik rivojlanish

imkoniyatlarini va investitsion faoliyatini shakllantiradi. Shu sababli majburiyatlar tarkibidagi nomutanosibliklar korxonaning likvidlik riskini oshirishi, to‘lov intizomini zaiflashtirishi hamda moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Majburiyatlar korxonaning moliyaviy holatini ifodalovchi eng muhim iqtisodiy kategoriyalardan biri bo‘lib, ular o‘tgan iqtisodiy voqealar natijasida yuzaga kelgan va kelajakda iqtisodiy resurslarning chiqib ketishiga olib keladigan mavjud qarzlarning sifatida talqin qilinadi. Ularning ortib borishi nafaqat moliyaviy risklarning kuchayishiga, balki korxonaning kreditga layoqatliligi va investitsion jozibadorligining pasayishiga ham olib keladi. Shu nuqtai nazardan, sanoat korxonalarida majburiyatlar tarkibini chuqur tahlil qilish nafaqat buxgalteriya hisobi, balki moliyaviy menejment va strategik boshqaruv nuqtai nazaridan ham dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, global iqtisodiy integratsiya jarayonlari va Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS)ga o‘tish talablari majburiyatlarni tan olish, baholash va tasniflash jarayonlarini yanada murakkablashtirmoqda. Bu esa milliy hisob tizimida mavjud yondashuvlarni xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish zaruratini kuchaytirmoqda. Natijada, korxonalarning moliyaviy hisobotlari nafaqat ichki boshqaruv uchun, balki tashqi investorlar va kredit tashkilotlari uchun ham asosiy axborot manbai sifatida xizmat qilmoqda.

D.E. Kieso, J.J. Weygandt va T.D. Warfield o‘zlarining “Intermediate Accounting” asarida majburiyatlarni korxonaning o‘tgan voqealar natijasida yuzaga kelgan va kelajakda iqtisodiy resurslar chiqib ketishini talab qiluvchi mavjud qarzlarning sifatida talqin qiladi. Ularning fikricha, majburiyatlarni to‘g‘ri tasniflash moliyaviy hisobotning ishonchliligini ta’minlashda asosiy omildir [1].

IASB tomonidan ishlab chiqilgan “Conceptual Framework for Financial Reporting” hujjatida esa majburiyatlar iqtisodiy resurslarning chiqib ketishiga olib keluvchi hozirgi majburiyat sifatida izohlanadi. Ushbu yondashuv iqtisodiy mazmunga asoslanganligi bilan milliy yondashuvlardan farq qiladi [2].

A.A. Karimov “Moliyaviy tahlil” asarida korxonalarda yuqori kreditorlik qarzlari moliyaviy barqarorlikni pasaytirishini va investitsion faoliyatni cheklashini ta’kidlaydi. Uning fikricha, qarz kapitalining haddan tashqari o‘sishi “moliyaviy qaramlik” holatini yuzaga keltiradi [3].

O. Narziev esa korxonalarda majburiyatlar tarkibining noto‘g‘ri tasniflanishi moliyaviy hisobotning ishonchliligini pasaytirishini qayd etadi. Uning ilmiy qarashlariga ko‘ra, avanslar, soliq qarzlari va kreditorlik majburiyatlari bir guruhda aks ettirilishi tahlil sifatini buzadi [4].

Shuningdek, IFRS 9 standartida moliyaviy majburiyatlarni amortizatsiyalashgan qiymat va samarali foiz stavkasi asosida baholash zarurligi ta’kidlanadi. Bu yondashuv majburiyatlarning real iqtisodiy qiymatini aniqlash imkonini beradi [5].

Tadqiqotda tizimli tahlil, statistik guruhlash va taqqoslash usullaridan foydalanildi. Andijon viloyatidagi 5 ta to‘qimachilik korxonasining 2024 yil moliyaviy hisobotlari empirik ma’lumot sifatida olindi. Majburiyatlar tarkibi joriy va uzoq muddatli guruhlariga ajratilib o‘rganildi. Shuningdek, likvidlik va moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari hisoblab chiqildi. Natijalar asosida korxonalarning moliyaviy risk darajasi baholandi.

Tadqiqot doirasida Andijon viloyatida faoliyat yurituvchi to‘qimachilik korxonalarining moliyaviy hisobotlari asosida joriy va uzoq muddatli majburiyatlar tarkibi chuqur empirik tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, sanoat korxonalarida majburiyatlar tarkibi nafaqat buxgalteriya hisobi nuqtai nazaridan, balki moliyaviy barqarorlik va investitsion jozibadorlikni baholashda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega omil hisoblanadi. Ayniqsa, joriy majburiyatlarning yuqori ulushi korxonalarning likvidlik darajasini pasaytirib, qisqa muddatli to‘lov qobiliyatini zaiflashtiradi.

Empirik tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, “XO‘JA OBOD FAYZ-M” MChJda 6950 “Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi” schyotidagi keskin o‘zgarishlar kredit qarzlarning qayta tuzilishi yoki muddat uzaytirilishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Yil boshida 120,4 mlrd so‘mni tashkil etgan ushbu ko‘rsatkich yil oxiriga kelib 6,9 mlrd so‘mga tushgan bo‘lsa-da, 7810 “Uzoq muddatli kreditlar” schyotining 130,1 mlrd so‘mdan 166,1 mlrd so‘mga oshishi korxonaning real qarz

yukini kamaymaganini, balki faqat tasnifi o‘zgarishlar yuz berganini ko‘rsatadi. Bu holat IFRS talablariga muvofiq likvidlikni sun‘iy yaxshilash ehtimolini ham inkor etmaydi.

“AL’YORTEKS” MChJda esa byudjet oldidagi qarzдорlikning 2,9 mlrd so‘mdan 14,98 mlrd so‘mga oshishi moliyaviy intizomning pasayganini ko‘rsatadi. Ushbu o‘shish asosan QQS va ijtimoiy to‘lovlar bo‘yicha kechiktirilgan majburiyatlar hisobiga shakllangan bo‘lib, korxonaning sof foydasi juda past darajada (14 mln so‘m) ekanligi bilan birga moliyaviy bosimni yanada kuchaytirmoqda. Bu holat soliq majburiyatlarining operatsion faoliyatdan ajralmagan holda yig‘ilib borayotganini bildiradi.

“BEST TEXTILE INTERNATIONAL” MChJ va “VODIY SANOAT FAXRI” MChJ misolida esa kreditorlik qarzlarning yuqori darajasi va manfiy kapital holati kuzatiladi. Ayniqsa, “VODIY SANOAT FAXRI” MChJda 41,2 mlrd so‘mlik yetkazib beruvchilarga qarzдорlik va -103 mlrd so‘mlik xususiy kapital korxonaning to‘lov qobiliyati jiddiy buzilganini ko‘rsatadi. Bu holat ishlab chiqarish zanjirining uzilishi va operatsion risklarning keskin oshishiga olib kelishi mumkin.

“Olingan bo‘naklar” (6300 schyot) tahlili shuni ko‘rsatdiki, “VODIY SANOAT FAXRI” MChJda 165,3 mlrd so‘mlik avanslar korxona zimmasiga katta ishlab chiqarish majburiyatini yuklagan. Biroq, balansdagi tovar-moddiy zaxiralar (66,5 mlrd so‘m) ushbu majburiyatni to‘liq qoplash uchun yetarli emas. Bu esa ishlab chiqarish uzluksizligiga bevosita xavf tug‘diradi va pul oqimlari nomutanosibligini kuchaytiradi.

“SOHIB OMAD BARAKASI” MChJda esa eng og‘ir moliyaviy holat kuzatiladi. Uzoq muddatli kreditlar (407,4 mlrd so‘m) va qisqa muddatli kreditlar (122,1 mlrd so‘m) jami 530 mlrd so‘mlik qarz yukini shakllantirib, manfiy kapital (-53,8 mlrd so‘m) bilan birgalikda korxonani “qarz qopqoni” holatiga olib kelgan. Moliyaviy xarajatlarning (54,2 mlrd so‘m) yalpi foydadan (2,85 mlrd so‘m) bir necha barobar yuqori bo‘lishi esa foiz yukining operatsion faoliyatdan mutlaqo qoplanmasligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, “Vodiy sanoat faxri” MChJda lizing operatsiyalarining 7910 schyotda alohida aks ettirilmasligi metodologik muammo sifatida baholandi. Lizing majburiyatlarining bank kreditlari bilan birlashtirilishi korxonaning real aktivlar bilan ta‘minlanganlik darajasini noto‘g‘ri aks ettiradi va moliyaviy tahlilning aniqligini pasaytiradi.

Umuman olganda, o‘tkazilgan tahlil natijalari O‘zbekiston sanoat korxonalarida majburiyatlar hisobining amaldagi amaliyoti bilan xalqaro standartlar o‘rtasida sezilarli tafovutlar mavjudligini tasdiqlaydi. Bu tafovutlar moliyaviy hisobotlarning ishonchligiga, korxonalar risk darajasiga hamda investitsion jozibadorlikka bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Andijon viloyati to‘qimachilik korxonalarida majburiyatlar tarkibi va moliyaviy barqarorlik o‘rtasida bevosita va tizimli o‘zaro bog‘liqlik mavjud bo‘lib, bu bog‘liqlik korxonalarning umumiy moliyaviy holatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Tahlil qilingan korxonalar misolida joriy majburiyatlarning yuqori ulushi likvidlik ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada pasaytirayotgani, uzoq muddatli majburiyatlarning ortib borishi esa foiz xarajatlari yukini oshirayotgani aniqlandi. Bu holat korxonalarning qisqa va uzoq muddatli moliyaviy barqarorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, ularning investitsion jozibadorligini kamaytirmoqda.

Empirik tahlillar asosida aniqlanishicha, 6010 “Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar”, 6300 “Olingan avanslar”, 6400 “Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzдорlik”, 6810 “Qisqa muddatli kreditlar” hamda 7810 “Uzoq muddatli bank kreditlari” schyotlari bo‘yicha majburiyatlar hajmining ortishi korxonalarda moliyaviy risklarning kuchayishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, kreditorlik qarzlarning tez sur‘atlarda o‘shishi aylanma mablag‘lar yetishmovchiligi va pul oqimlari nomutanosibligini keltirib chiqarmoqda, bu esa ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligiga xavf tug‘diradi.

Shuningdek, ayrim korxonalarda majburiyatlarning noto‘g‘ri tasniflanishi yoki ularning moliyaviy hisobotda to‘liq aks ettirilmasligi natijasida likvidlik va to‘lov qobiliyati ko‘rsatkichlari real holatdan farqli tarzda shakllanayotganligi aniqlandi. Bu esa moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayonida xatoliklar yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi to‘g‘ri ajratilmagan hollarda korxonaning qisqa muddatli to‘lov qobiliyati sun‘iy ravishda yuqori ko‘rinishi ehtimoli mavjud.

Tahlil natijalari shuni ham ko‘rsatadiki, yuqori qarz yuki sharoitida faoliyat yuritayotgan korxonalarda foiz to‘lovlari va moliyaviy xarajatlar ulushi ortib boradi, bu esa sof foyda hajmini qisqartiradi hamda reinvestitsiya imkoniyatlarini cheklaydi. Natijada korxonalarining o‘z mablag‘lari hisobiga rivojlanish darajasi pasayadi va ular tashqi moliyalashtirishga yanada ko‘proq bog‘liq bo‘lib qoladi. Umumiy xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, sanoat korxonalarida majburiyatlar hisobini yuritish tizimini takomillashtirish, ularni BHMSdan IFRS talablariga bosqichma-bosqich yaqinlashtirish hamda 6010, 6300, 6400, 6810 va 7810 schyotlar bo‘yicha moliyaviy nazoratni kuchaytirish zarur. Bu chora-tadbirlar korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirish, risklarni kamaytirish va xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga mos shaffof tizimni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kieso D.E., Weygandt J.J., Warfield T.D. Intermediate Accounting. Wiley, New York, 2019.
2. IASB. Conceptual Framework for Financial Reporting. IFRS Foundation, London, 2018.
3. Karimov A.A. Moliyaviy tahlil. Fan va texnologiya, Toshkent, 2020.
4. Narziev O. Korxonalarda moliyaviy hisobot tizimi va uning tahlili. Toshkent, 2022.
5. IFRS Foundation. IFRS 9 Financial Instruments. London, 2014.
6. IASB. IAS 1 Presentation of Financial Statements. London, 2020.
7. Tashmatov Sh.A. Buxgalteriya hisobi nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, 2021.
8. Damodaran A. Investment Valuation. Wiley, New York, 2012.
9. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. BHMS to‘plami. Toshkent, 2023.
10. Narziev O. “Sanoat korxonalarida moliyaviy barqarorlik muammolari”. Ilmiy maqola, 2023.

UDK: 331.5

SUN’IY INTELLEKT VA MEHNAT BOZORIDA RAQAMLI INQILOB: TAHDIDMI YOKI KELAJAK IMKONIYATIMI?

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ЦИФРОВАЯ РЕВОЛЮЦИЯ НА РЫНКЕ ТРУДА: УГРОЗА ИЛИ ВОЗМОЖНОСТЬ ДЛЯ БУДУЩЕГО?

ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND THE DIGITAL REVOLUTION IN THE LABOR MARKET: A THREAT OR AN OPPORTUNITY FOR THE FUTURE?

Ermatov Murodjon Sunnatulla o‘g‘li

Toshkent kimyo-texnologiyalari instituti Yangiyer filiali o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola sun’iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalarining mehnat bozoriga ta’sirini global va O‘zbekiston kontekstida tahlil qiladi. Xavf ostidagi kasblar va yangi paydo bo‘layotgan ish o‘rinlari ko‘rib chiqilib, raqamli inqilobning ikki tomonlama tabiati — bir tomondan ish o‘rinlarini qisqartirishi, ikkinchi tomondan yangi sohalarni vujudga keltirishi — asoslab beriladi. Muvaffaqiyatli moslashish esa davlat siyosati, biznes strategiyasi va uzluksiz ta’limga bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, mehnat bozori, avtomatlashtirish, raqamli iqtisodiyot, kasblar kelajagi, inson kapitali, texnologik o‘zgarish.

В данной статье анализируется влияние технологий искусственного интеллекта и автоматизации на рынок труда в глобальном и местном — в частности, узбекистанском — контексте. Рассматриваются профессии, находящиеся под угрозой, и новые возникающие рабочие места, обосновывается двойственная природа цифровой революции: с одной стороны,